



## ABDULLA ORIPOV ASARLARIDAGI ANTROPONIMLAR

Palvonnazarova Hayotxon Jamoladdin qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Turkiy  
tillar fakulteti O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lim yo'nalishi  
2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11108353>

### ARTICLE INFO

Received: 27<sup>th</sup> April 2024

Accepted: 29<sup>th</sup> April 2024

Published: 3<sup>rd</sup> May 2024

### KEYWORDS

onomastika, antroponim,  
antroponimika, ism, laqab,  
taxallus, familiya

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada tilshunosligimizda bugungi kungacha antroponimlar juda ham ko'p o'rganilgan, lekin asarlardagi antroponimlar hali hanuz to'liq o'rganib chiqilmagan. Abdulla Oripov qanday sermahsul ijodkor ekanligi barchamizga ma'lum. Uning antroponimlardan mahorat bilan foydalanganligi buning yana bir isboti ekanligini bilib olamiz*

<sup>1</sup>Tildagi atoqli nom (ot)larning xilma-xil xususiyatlari juda qadimgi davrlardan buyon turli soha olimlarining diqqatini o'ziga jalb etib kelmoqda. Masalan, qadimgi yunon olimlari Aristotel, Demokrit, Geraklitning asarlarida ham atoqli otlarning xususiyatlari haqida fikr-mulohazalar bildirilgan edi. Jumladan Aristotel "Poetika" asarida otni nutq bo'laklarida biri deb hisoblaydi va unga quyidagicha ta'rif beradi: "Ot murakkab, ma'no anglatuvchi, zamoni bildirmaydigan, qismlari o'z-o'zidan ma'no anglatmaydigan so'zdir" Eramizgacha 1-asrda yashagan Yuliy Polluks "Onomastika" nomli atoqli otlarga izoh beruvchi lug'at yaratgan. Onomastika haqida olib borilgan barcha ilmiy ishlarda antroponimlar haqida so'z yuritiladi. Antroponim so'zi grekchadan olingan bo'lib, kishikarga berilgan atoqli nomlar degan ma'noni anglatadi. O'zbek tilshunoslikida bu termin asosan ism, kishi ismi, odam otlari, kishi nomlari dega terminlar bilan ishlatiladi. O'zbek antroponimikasining asoschisi Begmatov E hisoblanadi. U 1962-1965-yillarda O'zbek antroponimlari uchun juda ham boy ma'lumotlat to'plagan olimlardan biri.

Antroponimlarga ism, familiya, otasining ismi, laqab taxalluslar kiradi. Oldin ismlarni qo'yish umuman boshqacha bo'lgan bola tug'ilgandan keyin otasining ko'ziga birinchi ko'ringan narsaning nomini qo'rganlar vaqtlar o'tib Islom dini kirib keldi shundan keyin ismlarni ma'nolarini o'ylab keyin qo'yiladigan bo'ldi. Ismlarning ma'nosini shu nom uchun asos bo'lgan dominant ma'nosi bilan tenglashtiriladi.

<sup>2</sup>O'zbek ismlarining ma'nolarini ommabop tarzda izohlagan dastlabki risolani Y Menajiyev va X Azamatovlar yaratishdi. Risolada ismlar ma'nosini tushunish, ism ma'nosining asosi bo'lgan

1. <sup>1</sup>Yo'ldoshev B O'zbek onomastikasi masalalari-Samarqand-2011

2. <sup>2</sup>Begmatov E A O'zbek tili antroponimikasi-Toshkent-2013

motivlar va boshqalar yuzasidan jiddiy nuqsonlarga yo'l qo'yilgan. Bu nuqsonlar haqida alohida to'xtalib o'tirmaymiz. Chunki ular haqida E. Begmatov va A. Irisov yozgan taqrizlarda keltirilgan.

“Demak, bolani nomlash odatlari va kishi nomlarining paydo bo'lishi, rivoji dastlab xalqning iqtisodiy-xo'jalik sharoiti, shunga bog'liq holda ma'naviy turmushi, jumladan diniy va estetik qarashlari, shuningdek, geografik muhiti bilan yaqindan bog'liq hodisadir” Insonlarning shahsiy hujjat pasportlarida o'zbekcha yozish uchun joy qo'yilmas hamma-hammasi ruschada to'ldiriladi edi. Keyin biz Mustaqillikka erishganimizdan keyin krill emas lotin alifbosida yozgan holatlarimizda o'zbekcha ismlarni xato yozish, xato talaffuz qilishga imkoniyatlar yaratib berildi. Sho'rolar davrida boshqa tillardan kirib kelga ismlarni yangi tug'ilgan o'g'il va qiz chaqaloqlarga qo'yish urf bo'lgan buni qo'yganidan ota-onalar g'urulanib ham qo'yishar edi. Bora-bora o'zbekcha ismlar kamayib chet eldan kirib kelgan baynalminal ismlar ko'payib ketdi. Qlara, Bernara, Elmira, Zoya ismlari 30-40-yillarda juda ham ko'p qo'yilgan. Antroponimlarni ikki guruhga bo'lib o'rganamiz birinchi o'z qatlam ikkinchi o'zlashgan qatlam. Bu mavzular bo'yicha ham ko'pchilik olimlar ilmiy ish va nomzodlik dissertatsiyalari yozganlar. Antroponimlar biz uchun juda ham zarur bo'lgan mavzulardab birisi hisoblanadi. Ismlarni o'rganish Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'otit turk” asarida ham o'zining yorqin na'munalarini ko'rsatgan. Ism qo'yish bolani biror bir yakka shaxsdan ajratib turish uchun kerak bo'ladi. Vaqtlar o'tgandan keyin rasmiy ravishda ismlarning yoniga familiya, otasining ismlarini ham qo'shib aytib boshlashgan. Insonning ismi uni boshqalardan ajratib turish bilan bir qatorda unga umri davomida hamroh bo'lib, har jihatdan ta'sir qilgan. O'zbek tili lug'atining katta qismini insonlarga atab qo'yilgan ismlar tashkil qiladi.

Shuni ham ta'kidlashimiz kerak-ki boalarning ismlarini ohangdosh shaklda qo'yishning yaxshi taraflari bor. Masalan akning simiga mos qilib singilga ukaga ism qo'yilsa ohangdoshlik sababli ham bir-birini himoya qilish qo'llab quvvatlash holatlari kuzatiladi. Jamoliddin, Kamoliddin, Nizomiddin, Nuraddin, Xusniddin bu ismlar bir-biriga aytishda qofiyadosh hisoblanadi keyin, ota onaning ismiga o'xshash bo'lsin deb ham ism tanlashadi.

Onomastikaning eng katta bo'limi antroponimikadan Abdulla Oripov asarlaridagi antroponimlarga nazar tashlasak.

### **O'zbekiston**

Dovrug' soldi uztoz *Olimjon*,

*G'afur G'ulom* tuygan g'ururni,

U, Ulug'bek ko'zidagi yosh,

Uxlar edi *Kolumb* ham hali,

Beruniyning aql mash'ali,

*Jahongiri* kam bo'lar, rosti,

Qalam bilan oldi *Alisher*,

Seni *Chingiz g'azabga to'lib*,

*Sabir Rahim* yiqilgan chog'da,

Balki ustoz *Oybekdek to'lib*,

Balki *Habib Abdulla* bo'lib,

Abdulla Oripovning bu O'zbekiston she'ridagi antroponimlarning hammasi oddiy shaklda berilgan. Sho'rolar davrida O'zbek antroponimikasiga juda ham salbiy qarashlar bor edi. Shu davrlarda ruscha ismlarga insonlarni zo'rlab o'tkazishgan. Ruschada uchta shaklli bo'lgan unda masalan Shamurotova Gulhayo Ochilovna, Berdibayev Sanjar Behzodov shaklida bo'lgan. Mustaqillikdan keyin shu na'munaga ozgina o'zgarish kiritilgan masalan Shamurotova Gulhayo Ochil qizi, Berdibayev Sanjar Behzod o'g'li shaklida yuritilgan

**"Genetika"** she'rida esa shularni na'munasiga misollar keltirib o'tgan

*Ergiyitov to'pga ko'ksin bosar jim*

*Rahimov g'animga tashlangan chog'da*

**"Bolalar shoirlariga hazil"** she'rida esa O'zbeklarning sof ismlaridan foydalangan

*Dedi Dilbarga Karim*

*Buni eshitdi G'ulom*

*Salim bilan Dilorom*

*Shoira-yu Gulnoza*

*Xadicha bilan Roza*

*Alisher-u Baxtiyor*

*Xurshid, Vitya, Ixtiyor*

*Azim, Moyli, Dadashvoy*

*Shukur, Ahmad, Adashvoy*

*Mavluyda-yu, Ilhomjon*

*G'ayrat, Sa'di, In'omjon*

*Toshpo'lat, Yulduz, Zohir*

*Zarifa, Mahkam, Omon*

*Miraziz, Safar, Rahmon*

*Shavkat, Yo'ldosh, Uzoqboy*

*Bolta, Tesha, Tuzoqboy*

*Eshmirza, Eldotr, Jur'at*

*Muqimiy bilab Furqat*

*Dedi Dilbarga Karim*

O'zbeklarda oldinlari Faqat ismning o'zi aytilgan vaqtlar o'tib o'zgarishlar sodir bo'ladi. XX asrning 20-30-yillarida esa o'g'li qizi shakllari ishlatilgan. Aynan shu davrda ziyolilar orasida esa -iy, -viy,-iya, -viya tarzida ishlatilgan. Shu bilan birga 30-yilning oxiri 40-yillarda esa Rasmiy ravishda ruslardagi kabi -ov, -ova, -ev, -eva shakllarida ishlatilgan.

Ayni hozirgi davrga kelib esa xoxlagan shaklda xujjatlarga ismlarni yozdiradilar. Faqat ismning o'zi ham bo'lishi mumkin hech biri cheklanmagan.

Tilshunosligimizda bugungi kungacha antroponimlar juda ham ko'p o'rganilgan, lekin asarlardagi antroponimlar hali hanuz to'liq o'rganib chiqilmagan. Abdulla Oripov qanday sermahsul ijodkor ekanligi barchamizga ma'lum. Uning antroponimlardan mahorat bilan foydalanganligi buning yana bir isboti hisoblanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Begmatov E A O'zbek ismlari ma'nosi Toshkent-2007
2. Begmatov E A O'zbek tili antroponimikasi-Toshkent-2013
3. Yo'ldoshev B O'zbek onomastikasi masalalari-Samarqand-2011

INNOVATIVE  
ACADEMY